

**JINSI MATOSIDAN ERKAKLAR KO'YLAGINI TIKISH  
TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQISH VA MODEL YARATISH.**

**Vohidjon Homidov Obidovich**

*Farg'onan politexnika instituti Yengil Sanoat va  
To'qimachilik fakulteti katta o'qituvchisi.*

**Ahmadali Rahmonaliyev Fayzulojon o'g'li**

*Farg'onan politexnika instituti Yengil sanoat va to'qimachilik fakulteti talabasi .*

**Annotatsiya:** Ilmiy maqola mazmuni shundan iboratki, yuqori sifatli kiyimlarni ommaviy tikishning kompleks avtomatlashgan korxonalarini yaratish, jumladan, ishlab chiqarishning tayyorlov-bichuv, tikish va pardozlash uchustkalari va ularni asbob uskunalarini haqida izlanishlar olib borilgan.

**Аннотация:** Содержание научной статьи заключается в том, что проведены исследования по созданию комплексных автоматизированных предприятий массового пошива высококачественной одежды, включающих подготовительно-швейные, швейно-отделочные участки производства и их оборудование.

**Abstract:** The content of the scientific article is that research was conducted on the creation of complex automated enterprises of mass sewing of high-quality clothes, including preparation and sewing, sewing and finishing plots of production and their equipment.

**Kalit so'zlar:** Model, qirqim, linyalar, robotokomplekslar, yangi yarim avtomat tikuv uskunalar, gazlama, garderob.

**Ключевые слова:** Модель, раскрой, линии, роботизированные комплексы, новое полуавтоматическое швейное оборудование, газификация, гардероб.

**Key words:** Model, cutting, lines, robotic complexes, new semi-automatic sewing equipment, gassing, wardrobe.

Tikuvchilik sanoatida vazifalarni bajarish uchun avvalo texnologiyani takomillashtirish talab qilinadi. Yangi kam operasiyali texnologiyalar yaratish tikuvchilik buyumlariga ishlov berishni takomillashtirishdagi istiqbolli yo'naliш hisoblanadi. Kiyimning (umuman tikuvchilik buyumlarining), kiyim detallari va usullarining konstruksiyasida choklarni iloji boricha ko'proq kamaytirish, namlab-isitib ishlov berish usullarining vibromaniken singari bir jarayonli turlarida materiallarga ularning termoplastik xususiyati hisobiga shakil berish, biriktirish va bezash jarayonlarini birlashtirish (masalan, mag'iz, tesma qo'yishda), yelim materiallaridan keng foydalanish va. k. ana shunday kam operasiyali texnologiyaga

kiradi. Kiyim sifatini yaxshilash uchun kimyoviy materiallarning yangi turlaridan foydalinish kerak bo'ladi. To'qimachilik va trikotaj, sun'iy mo'yna, sun'iy teri va sun'iy zamsha, sun'iy gazlama va sun'iy trikotaj, plyonka qoplangan materiallar, noto'qima materiallar, yelim qoplmali maxsus qotirmalar, xilma-xil furnituralar va h.k. Ana shunday material turlaridan hisoblanadi. Paralell ishlov berish uskunalarida ultratovush yordamida payvandlash sintetik materiallardan va sintetik tola aralash materiallardan tayyorlanadigan kiyim detallarini biriktirishning eng samarali usulidir.

Ayrim detallarni, uzellar va eng jo'n buyumlarni tola massasining yoki polemer eritmaning bevosita o'zidan shakil berib yasash texnologiyada eng istiqbolli yo'nalish bo'ladi. Bunday texnologiyada mahnat unimdonligi, avtomatlashtirish imkoniyatlari anchagina ortadi. Hozirda shim, yubka, erkaklar ko'y lagi, splash, sport kiyimlari va maxsus kiyimlarga ishlov berishda gazlamalarni «forniz» usulida ezilmaydigan qilib pardozlash keng tarqalmoqda

Texnologik hisoblash quyidagilarga asoslanishi kerak:

1. Zamonaviy uskunalar, zamonaviy texnologiya, texnologik jrayonlarni mexanizasiyalashtirish va avtomatlashtirish. Uskunalarni tanlashda ularni unifikasiya qilishga intilmoq kerak, chunki bu ishni tashkil qilishni, uskunalarga xizmat ko'rsatish va ularni ta'mirlashni yengillashtiradi.
2. Ishlab chiqarishni tashkil qilishning eng ko'p samarali ilg'or shakillari (masalan, bichiqchilikda universal kompleks brigadalar tashkil qilish, tikish syexlarida guruhlangan agregat potok uyushtirish, kiyimlarni so'ngi namlabqisitib ishlashni markazlashtirish va xokozo).
3. Ilg'or texnika, iqtisodiy ko'rsatkichlar, texnik asoslangan ilg'or ish normalari.
4. Ishlab chiqarishni aniq ixtisoslashtirish.
5. Ilg'or ish usullari, ish vaqtি bekor ketishini bartaraf etadigan, nuqsonlarni mashinalar bo'sh qolishini qisqartiradigan ilg'or ish usullari, ish o'rinarini oqilona tashkil etish.
6. Ish sharoiti xavfsiz va ozoda bo'lishi, og'ir hamda ko'p mehnat sarf bo'ladigan ishlarni mexanizasiyalashtirish. Mexanizasiyalashtirish vositalarini tanlashda yuklarni bir joydan boshqa joyga kamroq tashiladigan bo'lishiga erishish kerak. Bu yordamchi ishchilarni kamaytirish imkonini beradi. Bundan tashqari mexanizasiyalashtirish vositalarini ixtisoslashgan muassasalar chiqarayotgan tipik uskunalarga mo'ljallab tanlash lozim.
7. Korxona imorati texnologik jarayonini iqlim sharoitini hisobga olib, eng rasional tipda qurilishi. Chunki imoratning tipi va ustunlar orasidagi masofa uskunalarining qanday joylashtirilishiga anchanina ta'sir etadi.

Tikuvchilik sanoati oldiga qo'yiladigan masalalarni yechishda kiyimni amaliy va ilmiy jihatdan konstruksiyalash ishlariyetaksi o'rini egallaydi, chunki ishilashning ayni shu bosqichida kiyim va uning sifatiga qo'yiladigan barcha ijtimoiy va texnik-

iqtisodiy talabloar to'liq hisobga olinishi kerak. Kiyim deb insonni tashqi tasirlardan: quyosh nuri yomg'ir va shamoldan yetarlicha himoya qiladigan buyumga aytildi. Kiyimlar turiga ko'ra — ustki kiyim, ichki kiyim, bosh kiyimlar, oyoq kiyimlar (poyabzal). Vazifasiga ko'ra—kundalik, uyda, dam olish paytida, bayram va to'y marosimlarida kiyiladigan (kishilik) kiyimlar, ish kiyim (jomakor), sport kiyim, rasmiy kiyim (forma)lar, maxsus kiyimlarga bo'linadi; ayollar, erkaklar va bolalar kiyimlariga ajratiladi. Erkaklar ko'ylagining quyidagi usullari mavjud: Klassik uslubdagi erkaklar ko'y lagi, sport uslubdagi, fantaziya uslubdagi erkaklar ko'y lagi, safari uslubdagi erkaklar ko'y lagi.

Gazlama turiga qarab :Tabiiy tolali gazlamalardan ko'y lagi,sun'iy tolali gazlamalardan ko'y lagi, aralash tolali gazlamalardan ko'y lagi. Zamonaviy erkaklar ko'y lagi bilan soatlar, turli xil uslubdagi shimplar kiyishadi. Erkaklar polo ko'y lagi mavsumiy hisoblanmaydi. Chunki har bir faslda ko'y lagi kiyilishdan to'xtamaydi. Lekin bahor yoz mavsumi uchun juda samrali. Erkaklar polo ko'y lagi xar xil matolardan tayyorlanadi. Trend bo'yicha erkaklar polo ko'y lagi erkalar qo'llarida braslet soatlar bilan yanada tashqi ko'rinishini ochadi; Zamonaviy usulda tikilgan djinsiy matosidan erkaklar juda garderob uchun beqiyos aksessuar hisoblanadi.\

Jinsi matosini xususiyati va undan tayyorlangan modelar:

### XUSUSIYATLARI:

- gigroskopiklik;
- yorug'lilik qarshiligi va issiqlikka chidamlilik;
- deformatsiyaga qarshilik;
- kuch;
- nafas olish qobiliyati;

### Xarakterli ko'rsatkichlar:

- Ekologik toza qayta ishlanadigan;
- Yuqori kuch;
- Sarja;
- Gigroskopiklik;
- Issiqlik o'tkazuvchanligi past;
- Kirga chidamlı chang va kirni qaytaradi;
- Kengligi 180 sm ;  
-Ishlab chiqaruvchi davlatlar Xitoy, Koreya;

**Modelar turlari.**
**( 1-Jadval.)**

	<p>Model to`g`ri bichimli bo`lib silueti gavdaga biroz yopishgan qilib loyihalangan. Yoqa qismi ko`tarmali qaytarma yoqa bo`lib yeng qismi bostirma chok bilan birlashtirilgan yeng omiziga.</p>
	<p>Model ko`tarmali qaytarma yoqali bo`lib old bo`lagi ikki qismidan iborat. Model yengi o`tzazmali bo`lib uncha katta bo`lmagan-uzunlikdaloyihalangan. Shuningdek yeng qismiga manjet va taqilma bilan ishlov berilgan bo`lib bu kiyimga o`zgacha chiroy bag`ishlaydi.</p>

Ilmiy maqoladan xulosa shuki tikuvchilik sanoati, uning hozirgi kundagi holati va tikuvchilik sanoatining rivojlanishi, tanlangan model uchun qo'yiladigan talablar, kiyim bichimi, kurs ishi mavzusi bo'yicha zamonaviy kiyim modellarining ko'rinishi va uning tasnifi va vazifasi, kiyim sifati, tanlangan model hususiyatidan kelib chiqib gazlama tanlash va asoslash yoritib berildi.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI.**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-yanvar kunidagi "Murojaatnoma" si.
2. .X.Komilova, N.K.Hamroyeva. Tikuv buyumlarini konstruksiyalash. T, 2003 y.
3. I.N. Litvinova, Ya.A.Shaxova. Ayollar ust kiyimini tikish. Toshkent. «O'zbekiston» 1997 y.
4. M.Sh.Jabborova. Tikuvchilik tyexnologiyasi. Toshkent. O'zbekiston. 1994 y.
5. M.Sh.Jabborova. Tikuvchilik texnologiyasi. Toshkent. O'qituvchi. 1989 y.

6. M.K.Rasulova, M.A.Shukurova. Noviye texnologii v proizvodstve izdelyi legkoy promshlennosti. Tekst leksii. TITLP. 2003 g.
7. Ye.X.Myelikov i dr. Laboratornyy praktikum po tyexnologii shvyeyunykh
8. Jurnal. Kuryer. Rossiya. 2004 g. №5.
9. To'qimachilik va tikuvchilikdan Ingiliz-tili Rus-tili va O'zbek tilaridagi atamalar lug'ati. 1993 y.
- 10.X.X.Samarxo'jayev. Tikuv korxonalari asbob-uskunalari. Toshkent, 11.2000 yil

